O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____
I.M.Tuxtasinov
2022-yil “30” 06

CHET TILINI O‘QITISH METODIKASI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili)

Fan/modul kodi CTUM1604	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 5	ECTS-Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek	**Haftadagi dars soatlari** 4	

1	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Chet tilini o‘qitish metodikasi	54	66	120

2

I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi - “Chet tilini o‘qitish metodikasi” fani talabalarga sharq tillarini o‘qitishning ikki - nazariy va tajribaga asoslangan amaliy metodlaridan bilim beradi. Nazariy metod vositalari – analizlar, ilmiy faraz (gipoteza). modellashtirish, amaliy (tajriba) metodlaridan eksperiment (tajriba o‘tkazish), maqsadli kuzatish yo‘llarini o‘rgatish, yordamchi vositalardan: anketa (so‘rov)lar o‘tkazish, test sinovlari, suhbatlar o‘tkazishning turlari, tuzilishi, ishlatilish ko‘lami, ularni muayyan sharoit (jarayon)larga mos holda tanlash va tadbiq etish bo`yicha ko‘nikma va malaka shakllantirish kabi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi.

Fanning vazifasi - chet tillarini, xususan sharq tillarini o‘qitish prinsiplari, nazariya va amaliyotini, o‘qitish turlarini, ularni ishlatish (tadbiq etish) doirasini, o‘rnini usul va uslublarini bilishi, talaba muayyan sharoit (dars, mashg‘ulot)ga mos usul va uslublarni tanlab olishda optimal metodlarni qo‘llashda, dars rejalarini tanlashda, sharq tillarini boshqa tillar bilan bog‘lab dars berishda, dars bosqichlarini to‘g‘ri rejalashtirishda malakalarga ega bo‘lishga o‘rgatadi.

II. Asosiy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Til o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari” fanining mazmuni, predmeti va metodi

2-mavzu. Metodika-fan sifatida

3-mavzu. Metodika fani

4-mavzu. Sharq tilini o‘qitish

5-mavzu. Chet tillarini o‘qitish uslublari

6-mavzu. Asosiy sharq tillari (arab tili) ni o‘qitishning maqsad va vazifalari

7-mavzu. Asosiy sharq tillari (arab tili) ni o‘qitishning prinsiplari

8-mavzu. Til aspektlarini o‘rgatish. Leksikani o‘rgatish

9-mavzu. Grammatikani o‘rgatish

10-mavzu. Og‘zaki nutqni o‘rgatish. O‘qishga o‘rgatish

11-mavzu. Yozuvga o‘rgatish. Darsni rejalashtirish va tashkil etish

12-mavzu. Eshitish va ko‘rish vositalaridan foydalanish uslublari

13-mavzu. Arab tilini o‘qitishda noan’anaviy metodlar

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arab alifbosini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Arab tilini o‘rgatishda talaffuzning roli (o‘rni). Arab tili darslarida sinov turlari
3. Arab tilini o‘rgatishda predmetlararo alaqadorlik. Arab tilidan yozma ish turlari va uni o‘tkazish
4. Arab tili grammatikasini o‘rgatishda o‘zbek tili grammatikasi bilan bog‘lab olib borish
5. Arab tilini o‘rgatish uslublarining o‘ziga xosligi. Arab tili darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish
6. O‘quvchilarni arab tiliga qiziqtirish omillari. Arab tili darslarida o‘qitishning texnika vositalaridan foydalanish
7. Arab tili darslarida arab mamlakatlari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirib borish
8. Arab tili darslarida lug‘atdan foydalanishni o‘rgatish. Arab tili darslarida o‘quvchilarni rag‘batlantirish
9. Arab tili darslarida o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash. Arab tili to‘garagi ish faoliyatini tashkil etish
10. Arab tili darslarida tarqatma - didaktik materiallardan foydalanish
11. Sharq tillarini o‘qitishning maqsad va vazifalari. O‘zbekistonda arab tilini o‘qitishning hozirgi ahvoli
12. Arab tili darslarida fonetikani o‘qitishning ahamiyati. Arab tilini o‘qitishda nutq materiallarini taqdim etish
13. Arab tilini o‘rgatishda nutq faoliyatining turlari
14. Arab tili darslarida og‘zaki nutqni o‘stirish

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Arab tili darslarida o‘quv o‘yinlaridan foydalanish

2. Arab tili darslarida o‘qitishning yangi pedtexnologiya (interaktiv) usullaridan foydalanish

3. Arab tili darslarida dialog usullaridan foydalanish

4. Arab tili darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarga qo'yiladigan talablar

5. Yuqori kurs talabalariga siyosiy va badiiy matnlarni tarjima qilish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish

6. Arab tili darslarida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish

7. Arab tili darslaridan arab mamlakatlari teleko'rsatuvlaridan foydalanish.

8. Arab tili o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? (Arab tili o'qituvchisi shaxsining roli va mavqei)

9. Arab tili darslarida hadis va hikmatli so'zlardan foydalanish

10. Arab tili darslarida maqollardan foydalanish

11. Arab tili darslarida o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash usullari

12. Arab tili darslarida do'stlik va inoqlik tuyg'ularini tarbiyalash metodi

13. O'zbekistonda arab tilini o'qitishning hozirgi kundagi ahvoli

14. Arab tili darslarida og'zaki nutqni o'stirish

15. Arab tili darslarida nazorat turlari

16. Talabalarni chet tiliga qiziqtirish usullari.

17. Chet tilidan yozma ish turlari va uni o'tkazish

Mustaqil ta'lim uyga berilgan vazifalarni bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash, boshlang'ich ilmiy izlanishlar olib boriladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, prezentatsiyalar, essey, va boshqa turdagi taqdimotlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan bo'yicha kurs ishi

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Kurs ishi tasdiqlangan o'quv rejada ko'zda tutilgan ta'lim yo'nalishlarida bajariladi. "Chet tilini o'qitish metodikasi" fanidan kurs ishi muayyan mavzu bo'yicha umumiy yaxlitlikka ega, ilmiy-amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ish hisoblanadi. Kurs ishi faoliyati rivojlanishi darajasiga doir masalalarni aks ettirishga mos kelishi talab etiladi. Kurs ishi mavzuning dolzarbligi va erishilgan natijalarning amaliyotga tatbiqi, uning uslubiy darajasi hamda rasmiylashtirilishiga qarab baholanadi. Kurs ishini bajarishning muhim bosqichi rejada belgilangan savollar yoritilishida o'zaro nazariy va amaliy aloqadorlikni ta'minlashdir. Kurs ishining tarkibiy tuzulishini to'g'ri shakllantirish, talabaga uning maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish hamda ko'zlangan natijaga erish yo'llarini,

shuningdek, kurs ishini tayyorlash bosqichlarini ketma-ket bajarishga imkon yaratadi.

Kurs ishi talabaning salohiyati hamda fan bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmaga egaligini namoyon qiladi. Kurs ishida o'rganilayotgan masalalarning nazariy jihatlarini, aniqlangan muammolarini, qo'yilgan vazifalarni tahlil qilish hamda muammolarini hal etishni ko'zlangan holda izlanish natijalarini yoritishda xorijiy davlatlarning tajribalari va orttirilgan amalaiy yutuqlarini umumlashtirgan holda belgilangan muammolarning yechimi yuzasidan yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi va uni bartaraf etish yo'llarini tavsiya etadi.

Kurs ishini himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
- taklif va tavsiyalarni asoslab berish;
- fikrni ketma-ketlikda, muayyan izchillikda bayon qilish;
- kurs ishini qo'yilgan talablar bo'yicha rasmiylashtirish;

Kurs ishining namunaviy mavzulari:

1. Hamkorlik ta'limi va hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati
2. O'zbekiston ta'lim tizimining dolzarb muammolari.
3. Pedagogik texologiyaning umumiy asoslari
4. Pedagogik texologiyaning paydo bo'lishi
5. Pedagogik texologiyaning rivojlanishi va uning ta'riflari
6. Pedagogik texnologiyaning manbalari
7. Pedagogik texologiyaning metodologik asoslari va uning turlari
8. Pedagogik texnologiyaning asoslari.
9. Pedagogik texnologiya tamoyillari
10. Ta'lim-tarbiyaga texnologik yondashuv
11. Ta'lim texnologiyasi va uning tuzilishi
12. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining ustuvor tamoyillari, muhim belgilar va tarkibiy elementlari
13. Interfaol ta'lim texnologiyalarining didaktik mohiyati
14. Pedagogik texnologiyani joriy etish muammolari
15. Muammoli ta'lim texnologiyasining maqsad va vazifasi
16. Interfaol ta'lim metodlari va ulardan foydalanish tartibi.
17. O'yin texologiyalarining mohiyati va zamonaviy o'qitishdagi o'rni
18. O'yin texologiyalarining turlari
19. "Bumerang" texnologiyasi metodi va uning tuzilishi
20. "Veer" (yelpig'ich) texnologiyasi metodi va uning tuzilishi
21. "Skarabey" texnologiyasi metodi va uning tuzilishi
22. Didaktik o'yinli texnologiyalar
23. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar
24. Didaktik o'yinli dars va uning turlari

	25. O'qitishning faol pedagogik texnologiyalari 26. Ma'ruza va uning turlari 27. Munozara va uning turlari 28. Guruhiy ish 29. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. 30. Muammoli topshiriqlar 31. Loyihaviy topshiriqlar 32. Yorib o'tishlar texnologiyasi va V.Erxard maktabi. 33. Kompyuter ta'limi mohiyati va kompyuter ta'limi texnologiyalari 34. "Vakolatli ta'lim" texnologiyasi. 35. Pedagogik texnologiya: sifat va samaradorlik 36. Ta'lim jarayonida talabalarning o'zlashtirish darajalari 37. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni 38. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari 39. O'qituvchining nutq madaniyati 40. Masofaviy va modulli o'qitish va ularning rivojlanish bosqichlari 41. Masofaviy ta'lim tizimi va o'qitishning texnik vositalari 42. Pedagogik texnologiyani qo'llash bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy ishlar 43. Ayrim pedagogik va psixologik tajribalar va namunalari 44. Pedagogik texnologiyaning tajriba-sinovlari 45. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat uyg'unlashuvining istiqbollari 46. Oliy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati 47. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish vazifalari 48. O'quv faoliyati-ijtimoiy hodisa 50. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj 51. Arab tilini o'qitish jarayoni va unda foydalaniladigan metodlar 52. An'anaviy va zamonaviy ta'lim: farqlar, foydalilik jihatlari va ularning dars jarayonida qo'llash 53. Hozirgi kunda ta'lim tizimi va uning ahamiyati 54. Ta'lim jarayonida aloqa vositalari, internet va komputerlarning roli
3	**VI. Ta'lim natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** - sharq tillarini, xususan arab tilini o'qitish prinsiplari, nazariya va amaliyotini, o'qitish turlarini, ularni ishlatish (tadbiq etish) doirasini, o'rnini usul va uslublarini haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** **(bilim)** - nazariy metod vositalari – analizlar, ilmiy faraz (gipoteza). modellashtirish, amaliy (tajriba) metodlaridan eksperiment (tajriba o'tkazish), maqsadli kuzatish yo'llarini o'rgatish, yordamchi vositalardan: anketa (so'rov)lar o'tkazish, test sinovlari, suhbatlar o'tkazishning turlari, tuzilishi, ishlatilish(qo'llash) ko'lami,

	ularni muayyan sharoit (jarayon)larga mos holda tanlash va tadbiq etishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma)** - muayyan sharoit (dars, mashg'ulot)ga mos usul va uslublarni tanlab olishda optimal metodlarni qo'llashda, dars rejalarini tanlashda, sharq tillarini boshqa tillar bilan bog'lab dars berishda, dars bosqichlarini to'g'ri rejalashtirish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;*** **(malaka).**
4	**VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar • "keys stadi" texnologiyasi; • "FSMU" texnologiyasi; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	**VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha berilgan topshiriq va savollar hamda boshqa ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. (Darslik). T., 1996. 2. Tolipova I.O. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (Darslik). T. 2006. 3. Aliev D.I. "Arab tili darslarida noan'anaviy usullar". (O'quv qo'llanma) T. 2009 4. G. Qudratulloh qizi An'anaviy va noananaviy ta'lim Samarqand -2019 312 bet. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston". 2017. 6. Orifxo'jaev N.M. Arab tili darslarida o'quv o'yinlarini tatbiq etish bo'yicha tavsiya va namunalar. O'quv qo'llanma ToshDShI. T., 2001. 7. N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Sayfurov, A. To'raev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2015 8. L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv qo'llanma. TDIU, "Iqtisodiyot" nashr.,

	Axborot manbalari: 9. www.Ziyouz.com 10. www.Google.com 11. www.el-eman.com
7.	**Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2022-yil "30" 06 dagi "11"-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **M.N. Islomov**– SamDChTI, "Yaqin sharq tillari" kafedrasi o'qituvchisi. **Sh.R. Alamov**– SamDChTI, "Yaqin sharq tillari" kafedrasi o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** **X.Z. Xayrullayev** - SamDChTI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi professori, f.f.d, professor. **M.H. Abdullayev** – O'zDJTU, "Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.n. (*turdosh OTM)*